

MAKTABGACHA BO'LGAN BOLALAR NUTQINI O'STIRISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINFG'A TAYYORLASH

Kakabayeva Gurbanjemal

NDPI Boshlang'ich ta'lim fakultetining 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421188>

Annotasiya: Har bir bolaning nutqining rivojlanishi ilk bolalik davridan boshlanadi. Ularning ayniqsa qiziqishlari yuqori darajada bo'lganligi tufayli nutqqa bo'lgan ehtiyojlar oshadi. Shu sababli ham boshdan bolalarning nutqini rivojlantirish orqali boshlang'ich sinfg'a tayyorlash va nutqni shakllantirish usullarini o'rgatish haqida.

Kalit so'zlar: nutq, nutqni shakllantirish va o'stirish, dialog va monolog nutqning ahamiyati, nutqni rivojlantirish jarayoni, nutq va tilning ahamiyati.

Nutq bolalik davrlardan shakllana boshlaydi. O'sha paytlardanoq bolalar nutqini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish uchun asosan bolalarni har tomonlama yangiliklar ma'lumotlar bilan tanishtirish orqali ularning qiziqishlarini oshirish kerak. Biror narsaga qiziqib o'sha narsani so'rab urgansagina bola nutqning oshishiga katta sabab bo'ladi. Bola bu jarayonda o'zining qiziqqonligi orqali nutqi yuqori darajada shakllana boshlaydi. Asosan bolalar nutqini rivojlantirishda ularning ota-onalari bilan ham-da kattalar va o'zining do'stlari bilan muloqotda bo'lishlari lozim hisoblanadi. Bunda asosan kattalar ya'ni bolalarning ota-onasi muhimroq ro'l o'ynaydi. Masalan bola bironta gapni noto'g'ri xato gapirsa unga baqirmaslik va bolani qo'rqitmaslik kerak. Agar bu holatda ota-ona bolaga qattiq gapirsa bola boshqa safar o'z fikrini mustaqil ravishda to'liq va erkin bayon etolmaydigan va istaklarini yuzaga chiqara olmaydi. Bu bolsa bolaning nutqiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar asosan bosh paytlarda farzandlari bilan shug'ullansa ularga bironta kitoblardan hikoya ertak she'r o'qib yoki aytib bersa ham bolalarning so'z boyligini ortishiga katta yordam bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha uzoq vaqtlar davomida tadqiqot ishlari olib borildi. Bu masala bo'yicha mashhur olimlar, amaliyotchilari pedagoglar, metodistlardan Y.I.Tixiyeva, N.M. Shelovanova, N.M. Askarina, N.F. Lasigina, Y.K. Kaverina, Y.I. Radina va boshqalar tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Bolalik hayotining birinchi yili eng mas'uliyatli davri bo'lib bu davrda bola nutqida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu bolsa bolaning umumiy rivojlanishga sabab bo'ladi. Nutq apparati bilan to'g'iladi lekin u gapirmaydi buning sabablari bir qancha:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloq o'zining nutq operatidan foydalanish ko'nikmasiga ega emas bu ko'nikmalarni bolada hosil bo'lgan qildirish kerak.

2. Unda nutq uchun mavzu (obyekt) yo'q u mavzuni (obyektini) to'plashi kerak.

3. Unga nutqning so'z shakllari tanish emas bola ular bilan tanishishi kerak.

4. Nutq tafakkur bilan bog'liq shu sababli ham bolaning tafakkurini oshirish kerak.

5. Nutq kishilarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatlari rivojlandi.

Mana shu yuqoridagi yo'nalishlarga qarab bolalar nutqning rivojlanishiga rahbarlik qilish kerak. O'z vaqtida to'liq qimmatga ega bo'lgan nutqni egallash borada to'liq qimmatga ega bo'lgan psixik rivojlanish vujudga keladi va uni kelgusida rivojlantirishdagi eng muhim vositalardan biri ekanligini olimlar o'zlarining ilmiy nazariy qarashlarida isbotlab berishgan.

Metodik adabiyotlarda bayon qilinishicha, adabiy til negizida asosan monologik nutq yotadi. Shuning uchun ham nutqni rivojlantirish ta'lim-tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Monologik nutq, muayyan mavzuga oid mantiqiy izchil gaplar shaklida ifodalangan hamda boshqalarga ta'sir ko'rsatish uchun yo'naltirilgan fikrlar (tovushlar)ning uyushgan tizimini namoyon etadi. Bolalar uchun monologik nutq, shubhasiz, psixologik jihatdan murakkab hisoblanadi. Gap shundaki, maktabgacha katta yoshdagi bola monologik nutqqa tayyorgarlik jarayonida, shuni tushunadiki, tinglovchilar (boshqalar) uning aytayotgan fikr-mulohazalaridan qandaydir qiziqarli narsani bilishni istaydilar. Bola intuitiv tarzda bo'lsada, monologik nutq rejasini mantiqan tuzish, maqsadini bayon etishga oid iboralarni to'g'ri tanlash, gap tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga harakat qiladi. Noqulay psixologik sharoit maktabgacha katta yoshdagi bolaga shunday muhit yaratadiki, uning o'zi bayon qilmoqchi bo'lgan so'z, ibora, gap ma'nosini tushunib yetmaslik bilan bog'liq bo'lgan «noqulaylik»ni his etadi. Haqiqatan ham monologik nutq tinglovchiga maroqli va tushunarli bo'lishi uchun maktabgacha va katta yoshdagi bola, avalo, xotira va mantiqiy fikrlashga tayanmog'i lozim.

Asosan, bolalar nutqning rivojlanishda dialog nutq ham muhim ro'l o'ynaydi. Dialog nutqda bolalar inson bilan muloqotda bo'lishi ularning bir-birlari bilan fikr almashishi masalan ota-onasi yoki tarbiyachisi yoki o'zining yaqin do'stlari bilan muloqotda bo'lish ularning nutqining rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyatida bolada nutq diqqat xotira tasavvur va tafakkurning shakllanishi muhim hisoblanadi. Bolaning maktabdan muvaffaqiyatli o'qishi orqali uning nutqning rivojlanishi va aqliy hamda jismoniy tayyorgarlikka bog'liq bo'ladi. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi ham o'z fikrini bayon eta olishi ham oshadi. Bolaning nutqning rivojlanishida asosan maktab juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shu narsa aniqlanganki, maktabgacha va katta yoshdagi bolalarning barcha harakat va xulqini boshqarishda bosh miya faoliyatining ro'li ortib boradi. Ya'ni bolalar boshqalarning xatti-harakatlarini, atrofda kechayotgan voqea-hodisalarni bilishga va baholashga intiladilar. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar bajaradigan faoliyat turlari ham xilma-xil va mazmunli bo'lib boradi. Demak, bolalar faoliyat turlari nutq o'stirishda katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, ta'limda biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy xulq-odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e'tibor berish lozim. Ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to'grisida axloqiy tasavvurlarni tarkib toptirish kerak.

Nutqni samaradorligini rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini oshirish rejasida nafaqat tevarak-atrof obyektlari ustida oddiy kuzatishlar uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish muhim hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, bolalarning nutqini rivojlantirishni asosan boshdan shakllantirish kerak. Bundan ularga katta e'tibor qaratish kerak. Bolalarning nutqini rivojlantirishda asosan ota-onalarning va boqcha tarbiyachisining ham-da maktab o'qituvchilarning ro'li katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bolalar ota-onalari bilan doimo muloqotda bo'ladi. Muloqot orqali nutqni shakllanishi yuqori darajani ko'rsatadi. Nutqning rivojlanishida asosan muloqotning o'рни juda katta hisoblanadi. Chunki bolalar muloqotda biror bir kishilar bilan muloqot qilganlaridagina ularning til boyligi oshadi. Til bo'yligining oshishi bo'lsa bolaning nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva.D R. Nutq o'stirish metodikasi va nazariyasi. T - 2018.
2. М. Г. Давлетшн, Ш. Дусмухаммедова, М. Мавланов , С. Туйчиева. Ёш даврлари ва педагогик психология Т - 2004.
3. Ш. А. Дусмухаммедова, З.Т.Нишанова , С. Х. Алимбаева. Ёш даврлари ва педагогик психология Т - 2013.
4. Arxiv.uz